XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2021 - yil 31 - dekabr VI-50-116-7-102-K/21 Paxtachi tuman hokimligi

Paxtachi tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/841-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, L sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Paxtachi tumani mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 90 milliard 54,0 million so‘m, xarajatlari 165 milliard 583,2 million so‘m prognoz qilinganligi hamda yuqori budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 75 milliard 529,2 million so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun tuman budjetidan mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga

muvofiq;

2022-yil uchun tuman mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq;

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjeti bilan mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

2022-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 milliard 562,1 million so‘m miqdorida belgilansin.

4. Tuman budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli budjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

5. 2022-yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 milliard 217,0 million so‘mni hamda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. Qonun bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

7. Qonunga muvofiq, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat ob’yektlarini ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun, sigaret uchun va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining tuman aholisidagi ulushiga muvofiq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i;

b) tumanning mahalliy budjetiga qisman hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

tuman hokimining qarori asosida sotiladigan davlat mulki ob’yektlarini sotishdan olingan daromadlar;

davlat foydasiga musodara qilingan mol-mulkni sotishdan tushgan tushum;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizasiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (V.Hakimov), tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Arnaqulov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Turg‘unov) va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (V.Hakimov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (R.Magripova):

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda tuman mahalliy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (V.Hakimov) zimmasiga yuklansin zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Xamdamov**

Халқ депутатлари Пахтачи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-116-7-102-K/21-сон қарорига
1-илова

2022-yil uchun Paxtachi tumani budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami	JAMI	90 054 000,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	676 500,0		
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	19 513 200,0		
3	Aksiz solig‘i, jami	7 408 000,0		
	shu jumladan:			
4	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*7 408 000,0*		
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 210 000,0		
6	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	5 157 000,0		
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 642 300,0		
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9 531 000,0		
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 312 000,0		
10	Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq	1 478 000,0		
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq	5 800 000,0		
12	Koxonalar aylanmasidan soliq	5 312 000,0		
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	29 000,0		
14	Yig‘imlar	309 000,0		
15	Algokol mahsuloti	8 961 000,0		
16	Mobil aloqa xizmati	5 105 000,0		
17	Sigaret uchun aksiz solig‘i	9 610 000,0		

Халқ депутатлари Пахтачи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-116-7-102-K/21-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun Paxtachi tuman mahalliy budjetidan tuman budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**165 583 241,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**165 583 241,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga transfertlar	**0,0**
1.	**Maktabgacha ta’lim bo'limi**	**14 838 971,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 838 971,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
2.	**Xalq ta’limi bo'limi**	**12 929 593,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 929 593,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	**Tibbiyot birlashmasi**	**52 013 127,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	52 013 127,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4	**Madaniyat bo'limi**	**4 088 897,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 088 897,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Bolalai oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**45 888 221,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo'limi**	**8 676 809,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 676 809,0

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	**499 089,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	499 089,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalar va energetika bo'limi**	**528 120,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	528 120,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Boshqaruv organ tashkilotlari**	**9 040 397,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 040 397,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Maxalliy budjetlarda xokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 254 800,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 254 800,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**O‘rmon xo‘jalik bo'limi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi**	**1 323 809,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 323 809,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlarini saqlash**	**5 128 772,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 128 772,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Zahira jamg‘armasi**	**1 562 106,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 562 106,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**7 810 530,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 810 530,0

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Халқ депутатлари Пахтачи туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-116-7-102-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslar-ning mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	yakuniy iste’mol-chilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yig‘imlar (bojxona yig‘im-laridan tashqari)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Korxonalar aylanmasidan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Paxtachi tumani	100	100	100	100	60	30	100	100

Халқ депутатлари Пахтачи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-116-7-102-K/21-сон қарорига
4-илова

Paxtachi tuman mahalliy budjetining 2022-yilgi darmadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Paxtachi tumani	90 054 000,0	165 583 241,0

Халқ депутатлари Пахтачи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-116-7-102-K/21-сон қарорига
5-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori
1	Paxtachi tumani	75 529 241,0

Халқ депутатлари Пахтачи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-50-116-7-102-K/21-сон қарорига
6-илова

2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turadigan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**1 217 000,0**
	shundan	
1	Paxtachi tumani	1 217 000,0